

ongoing critical attention to the linguistic and discursive dimensions of green marketing, attention this study has sought to advance.

References:

- Bloomberg Law. (2024). *AI washing: Navigating the risks of misleading AI claims*. Bloomberg Industry Group.
- Caimotto, M. C., & Molino, A. (2024). *Anglicisms in Italian as alerts to greenwashing: A case study*. *Critical Approaches to Discourse Analysis Across Disciplines*, *17*(1), 42-68.
- Committee of Advertising Practice. (2023). *The environment: Making environmental claims*. Advertising Standards Authority. <https://www.asa.org.uk/advice-online/environment-claims.html>
- de Freitas Netto, S. V., Sobral, M. F. F., Ribeiro, A. R. B., & Soares, G. R. (2020). *Concepts and forms of greenwashing: A systematic review*. *Environmental Sciences Europe*, *32*(1), 1-12. <https://doi.org/10.1186/s12302-020-0300-3>
- European Commission. (2024). *Proposal for a regulation laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act)*. EUR-Lex.
- Fairclough, N. (2013). *Critical discourse analysis: The critical study of language (2nd ed.)*. Routledge.
- Friestad, M., & Wright, P. (1994). *The persuasion knowledge model: How people cope with persuasion attempts*. *Journal of Consumer Research*, 21(1), 1-31. <https://doi.org/10.1086/209380>
- Musonda, N. & Siame, P. (2025). *The impact of language on branding: A comprehensive analysis*. *Linguistic Exploration*, 2(1), 37-46. <https://doi.org/10.55121/le.v2i1.250>
- Petty, R. E., & Cacioppo, J. T. (2012). *Communication and persuasion: Central and peripheral routes to attitude change*. Springer Science & Business Media.
- Qadri, U. A., Moustafa, A. M. A., & Waqas, M. (2026). *When and how AI personalization drives sustainable purchases: The roles of relevance, privacy, and transparency in eco-friendly advertising*. *Journal of Retailing and Consumer Services*, 89, 104-128. <https://doi.org/10.1016/j.jretconser.2025.104128>
- Siame, P., Chisenga, R.P.A., Kangwa, K.N., Kapau, M.H. & Amoakohene, B. (2025). *Constructing legitimacy through language: A critical discourse analysis of Zambian Parliamentary debates*. *IKR Journal of Arts, Humanities and Social Sciences (IKRJAHS)*, 1(4), 232-243. <https://ikrpublishers.com/wp-content/uploads/2025/10/IKRJAHS34183-2025.pdf>
- Sharma, U., Rudinac, S., Mićković, A., van Dolen, W., & Worrying, M. (2025). *Analyzing sustainability messaging in large-scale corporate social media*. arXiv preprint. <https://arxiv.org/abs/2501.12345>
- Theodorou, A., Drosos, D., & Tsotsolas, N. (2025). *Perceptions of greenwashing and purchase intentions: A model of Gen Z responses to ESG-labeled digital advertising*. *Risks*, 13(8), 157. <https://doi.org/10.3390/risks13080157>
- White, K., Habib, R., & Hardisty, D. J. (2019). *How to SHIFT consumer behaviors to be more sustainable: A literature review and guiding framework*. *Journal of Marketing*, 83(3), 22-49. <https://doi.org/10.1177/0022242919825649>

ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TAKAFUL TIZIMI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Dadabayev Umidjon, TDIU dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy moliya bozorida jadal rivojlanayotgan takaful tizimining konseptual asoslari va uning an'anaviy sug'urta modellaridan farqli

jihatlarni tadqiq etishga bag'ishlanadi. Tadqiqot davomida Takafulning shariat tamoyillariga asoslangan o'zaro yordam va xayriya mexanizmlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Maqolada Mudoraba, Vakala va gibril modellarining iqtisodiy samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston moliya bozorida islomiy sug'urta xizmatlarini joriy etishdagi mavjud to'siqlar aniqlanib, aholining moliyaviy inklyuzivligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan. Xulosa qismida Takaful tizimini milliy iqtisodiyotga integratsiya qilishning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri baholanadi.

Kalit so'zlar: Takoful, Ta'avun, Tabarru', Vakala va Mudoraba modellari, moliyaviy inklyuzivlik.


Bugungi kunda global moliya bozori nafaqat foyda olishga, balki ijtimoiy mas'uliyat va barqarorlikka asoslangan muqobil tizimlarga ehtiyoj sezmoqda. Shunday tizimlardan biri – Takaful bo'lib, u islom iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. An'anaviy sug'urta modellaridan farqli o'laroq, Takaful o'zaro birdamlik - Ta'avun va ixtiyoriy xayriya - Tabarru' tamoyillari asosida shakllanadi.

Ushbu tizimning iqtisodiy mexanizmi ishtirokchilar va operator o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi Vakala va Mudoraba kabi modellar orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda moliya bozorini diversifikatsiya qilish va aholining barcha qatlamlarini sug'urta xizmatlariga jalb etish, ya'ni moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Takaful tizimini joriy etish nafaqat diniy e'tiqodi tufayli sug'urtadan foydalanmayotgan aholi segmentini qamrab olishga, balki mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada Takafulning nazariy-huquqiy asoslari va uning milliy iqtisodiyotdagi amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Islom sug'urta munosabatlari sug'urta muassasalarida quyidagi asosiy modellar vositasida boshqariladi:


- Sof mudoraba;
- Takomillashgan mudoraba;
- Vakolat modeli;
- Takomillashgan vakolat modeli;
- Gibril model (vakolat + mudoraba);
- Vakolat modeli + vaqf fondi.



1-rasm. "Vakolat" modeli ishlash mexanizmi .

Vakolat usuli sug'urtalovchi korxonaga sug'urta ishtirokchilarining agenti (vakili) sifatida ishtirok etishini nazarda tutadi. Takaful jamg'armasiga tushgan mablag'larni

boshqarish uning burchidi hisoblanadi. Takaful-operator to'langan badallarning bir qismidan komissiya oladi, bu esa operatorning ishtirokchilar mablag'larini boshqarish uchun ish haqini (mukofotini) tashkil qiladi. Agar sug'urta xolatlari sodir bo'lsa, ishtirokchilarning mablag'lari hisobidan kompensatsiya to'langandan so'ng, ortiqcha miqdor (shu jumladan olingan foyda) barcha ishtirokchilarga tegishli hisoblanadi. Sof va takomillashgan mudorabalardan farqli o'laroq, vakolat usulida Takoful-operator foydani ishtirokchilar bilan belgilangan nisbatda taqsimlamaydi.



2-rasm. "Takomillashgan Vakolat" modeli ishlash mexanizmi.

Takomillashgan vakolat modelining oddiy vakolat usulidan asosiy farqi shundaki, u kelishuv mexanizmi asosida foyda va zararni taqsimlash tizimining ayrim elementlarini o'z ichiga oladi. Takoful operatori xuddi vakolat usulida bo'lgani kabi takoful fondiga to'langan badallarning bir qismini komissiya sifatida oladi. Olingan investitsiya foydasidan sug'urta qildiruvchiga to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng, qolgan summa kompaniya va ishtirokchilar o'rtasida belgilangan nisbatda bo'lib olinadi. Boshqacha qilib aytganda, ortiqcha miqdor xuddi takomillashgan mudorabadagi kabi Takaful-operator va ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi.

Takoful – an'anaviy sug'urtadan farqli o'laroq, tijoriy foyda ortidan quvishni emas, balki ishtirokchilar o'rtasidagi hamjihatlik va ijtimoiy adolatni ustuvor vazifa deb biladi. Shariat mezonlariga tayangan ushbu tizim o'zaro yordam mexanizmi bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berganda jamlangan mablag'lar hisobidan moddiy ko'mak berishni ko'zda tutadi. Shu bilan birga, shakllangan fondlarning halol aktivlarga investitsiya qilinishi natijasida ishtirokchilarning qo'shimcha daromad olish imkoniyati ham ta'minlanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, takoful – shariat tamoyillariga to'liq muvofiq keluvchi, o'zaro birdamlikka asoslangan strategik sug'urta modelidir. Garchi turli islom ulamolari va xalqaro tashkilotlar (masalan, AAOIFI) ushbu tizimga turlicha ta'rif berishsa-da, uning konseptual asosi o'zgarmas bo'lib, u "o'zaro yordam va hamjihatlik" g'oyasiga tayanadi.

Takoful tizimi an'anaviy sug'urtadan nafaqat huquqiy asosi, balki risklarni taqsimlash mexanizmi, investitsiya siyosati va foydani adolatli taqsimlash prinsiplari bilan tubdan farq qiladi. Mazkur tizim islom iqtisodiyotining muhim ustunlaridan biri bo'lib, islom banklari va boshqa moliya muassasalari bilan integratsiyalashgan holda, zamonaviy moliya bozori uchun barqaror va shaffof biznes modelini taqdim etadi. O'zbekistonda ushbu tizimning joriy etilishi sug'urta bozorini diversifikatsiya qilish va aholining ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini kuchaytirishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Archer, S. and Abdel Karim, R. A. (2013). *Takaful Islamic Insurance: Concepts and Regulatory Issues*. Singapore: John Wiley & Sons.
2. Ayub, M. (2007). *Understanding Islamic Finance*. West Sussex: John Wiley & Sons.
3. Billah, M. M. (2019). *Islamic Insurance Products: Takaful: Ethics, Law and Practice*. Cham: Springer Nature.
4. Hassan, Z. and Abbas, M. (2020). 'Comparative Analysis of Conventional and Takaful Insurance Models', *Journal of Islamic Banking and Finance*, 37(2), pp. 45-58.
5. Kassim, N. and Ajmi, H. (2018). 'The Role of Takaful in Promoting Financial Inclusion', *International Journal of Islamic Economics and Finance Studies*, 4(1), pp. 12-25.

INVESTITSIYA LOYIHALARINI BAHOLASH VA MONITORING QILISHDA MAQASID AL-SHARIAH VA ESG INDIKATORLARI INTEGRATSIYASI

D.A.Ochilova

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Loyiha boshqaruvi" yo'nalishi magistranti*

Global moliyaviy bozorlardagi transformatsiya jarayonlari investitsiya loyihalarini baholashda nafaqat iqtisodiy foyda, balki axloqiy va ekologik mas'uliyatni ham birinchi o'ringa olib chiqmoqda. Bugungi kunda barqaror investitsiyalar hajmi jahon miqyosida jadal o'sib bormoqda, biroq islomiy moliya instrumentlarini zamonaviy ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari bilan integratsiya qilishning yagona metodologik asosi hali to'liq shakllanmagan. Bu jarayonda Maqasid al-Shariah konsepsiyasi loyihalarning ijtimoiy-ekologik samaradorligini o'lchashda fundamental metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya tamoyillari asosida boshqariladigan aktivlar ESG mezonlariga 85-90% holatlarda muvofiq keladi. Loyiha boshqaruvini takomillashtirish uchun Maqasid al-Shariah tamoyillarini ESG komponentlari bilan uzviy bog'lovchi quyidagi modelni taklif etish mumkin:

1-jadval

Maqasid al-Shariah va ESG indikatorlarining o'zaro muvofiqligi

ESG komponenti	Maqasid al-Shariah tamoyili	Kutilayotgan natija
Ekologik (E)	Hifz al-Nafs (Jonni asrash)	Resurs tejamkorligi va emissiya nazorati.
Ijtimoiy (S)	Hifz al-Nasl (Naslni asrash)	Ijtimoiy adolat va ish o'rinlari yaratish
Boshqaruv (G)	Hifz al-Mal (Mulkni asrash)	Shaffoflik va korrupsiyadan xolilik

Loyiha boshqaruvida monitoring jarayoni faqatgina moliyaviy sarf-xarajatlarni nazorat qilish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Maqasid al-Shariah va ESG indikatorlari integratsiyasi loyihani monitoring qilishning quyidagi uch bosqichli tizimini shakllantirish imkonini beradi:

Ekologik monitoring (Environmental Check): Loyihaning har bir bosqichida tabiatga yetkazilayotgan ta'sir (uglerod izi, suv sarfi, chiqindilar) monitoring qilinadi. Bu "Hifz al-Nafs" tamoyiliga muvofiq, inson hayoti uchun xavfsiz ekologik muhitni saqlashni kafolatlaydi.

Ijtimoiy samaradorlik auditi (Social Audit): Loyihaning ijtimoiy ta'sirini (SROI - Social Return on Investment) o'lchash orqali mahalliy aholining turmush darajasi